

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIM TIZIMIDA JISMONIY TARBIYA UZVIYLIGINI TA’MINLASHNING METODIK XUSUSIYATLARI.

Temirov Shoirbek Raimjonovich
ADU Jismoniy madaniyat nazariyasi
va metodikasi kafedrası o‘qituvchisi (PhD)

Annotatsiya: Dunyoda ta’lim tizimi rivojlanishining yangi vazifalari jamiyat rivojlanishining har bir yangi bosqichiga mos keladi. Jahonning ko‘pgina mamlakatlarida maktabgacha ta’lim tizimida jismoniy tarbiya darslari, umumta’lim maktablaridagi jismoniy tarbiya va sport faoliyati bolalar salomatligini saqlash va mustahkamlash hamda jismoniy tayyorgarligini oshirishda zarur ehtiyojga aylanmagan.

Kalit so‘zlar: Jismoniy tarbiya, tezkorlik, kuch, chaqqonlik, uloqtirish, tennis.

Abstract: The new tasks of the development of the educational system in the world correspond to each new stage of the development of society. In many countries of the world, physical education classes in the preschool education system, physical education and sports activities in general schools have not become a necessary need for maintaining and strengthening children's health and increasing their physical fitness.

Key words: physical training, speed, strength, agility, throwing, tennis.

Аннотация: Каждому новому этапу развития общества соответствуют новые задачи развития системы образования в мире. Во многих странах мира занятия физкультурой в системе дошкольного образования, физкультурно-спортивная деятельность в общеобразовательных школах не стали необходимой необходимостью для сохранения и укрепления здоровья детей, повышения их физической подготовленности.

Ключевые слова: физическая подготовка, скорость, сила, ловкость, метание, теннис.

Mamlakatimiz rivojlanishining yangi bosqichida aholi, ayniqsa, bolalar va o‘quvchi yoshlarning sport bilan ommaviy shug‘ullanishlarini, faol dam olish shakllaridan foydalanishlarini ta’minlovchi amaliy chora-tadbirlar bosqichma-bosqich amalga oshirilmoqda. Jismoniy tarbiya va sportni yanada rivojlantirish, sog‘lom avlodni tarbiyalash respublikamizda davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishiga aylangan, “...butun ta’lim tizimining eng muhim vazifasi – yosh avlodga puxta ta’lim berish, ularni jismoniy va ma’naviy yetuk insonlar etib tarbiyalashdan iboratdir”[1].

6-7 yoshdagi bolalarga samarali pedagogik ta’sir etishni aniqlash, ularda jismoniy sifatlarning pedagogik xususiyatlari mazmuni va sog‘lom turmush tarzi, ishchanlik kabi kompleks rivojlantirish komponentlarini ta’lim jarayonida integratsiyalash, hamda ularni harakat amallariga o‘rgatish, ta’lim jarayonida mashqlantiruvchi samarani ta’minlash maqsadida biz tomonimizdan ishlab chiqilgan barcha mashqlar ularning organizmiga pedagogik tizimli yondashuvlar asosida ustuvor ta’sir qilishiga qarab taqsimlab chiqildi.

Yurishdagi mashqlar

Ushbu yurishdagi mashqlarni ikkala yosh guruhlarida qomat, oyoq kafti, harakatlar sur’ati va ritmini shakllantirish, muvozanat saqlash va ko‘z bilan chamalashni rivojlantirish uchun qo‘llash tavsiya qilindi. Yurishdagi mashqlardan foydalanish bolalarning harakat tajribalarini boyitish, sog‘liqlarini mustahkamlash vositasi bo‘lib ham xizmat qildi [2,3].

1. Bittalik kolonnada yurib, to‘g‘ri qomatni saqlash va qo‘llarni to‘g‘ri harakatlantirish.
2. Oyoq uchida, tovonlarda, oyoq kaftining tashqi tomonida hamda qo‘llarni turli holatlarda: belda, orqada, yuqorida ushlagan holda yurish.
3. Tizzalarni (sonlarni) baland ko‘tarib, oldinga tashlanishlar bilan, yarim o‘tirish, o‘tirish holatlarida yurish.

Yugurishdagi mashqlar

Yugurish bolalar hayotida yetakchi o‘rin tutadi, buni o‘qituvchilar jismoniy tarbiya jarayonida inobatga olishlari va ulardan chidamlilik, tezkorlik, tezlik-kuch sifatlarini tarbiyalash, qomat, oyoq kaftini shakllantirish, bolalar organizmining funksional imkoniyatlarini oshirish uchun uslubiy jihatdan to‘g‘ri foydalana olishlari kerak.

Asosiy vazifani hal qilishda bir nechta xususiy vazifalar ham hal etildi:

- bolalarni uzoq vaqt davomida qomatni to‘g‘ri ushlashga o‘rgatib bordik;
- bir maromda, yugurish harakatlari bilan birga erkin nafas olishni o‘rgatib bordik.

Chaqqonlikni rivojlantirish usullari

1. Harakat yo‘nalishini o‘zgartirgan holda, harakat sur‘atini tezlashtirish va sekinlashtirish bilan, to‘xtalishlar va oldindan ko‘rsatib o‘tilgan dastlabki holatlarni signal bo‘yicha qabul qilish bilan yugurish.
2. O‘ng va chap tomon bilan chalishtirma qadamlar, sakrashlar bilan sonni baland ko‘tarib va boldirga shapillatib urgan holda yugurish.
3. Halqani to‘g‘riga va predmetlar orasidan yumalatib yugurish.

Tezkor-kuch sifatlarini rivojlantirish usullari

1. Ikkala oyoqda, qo‘llar belda, yuqoriga sakrashlar.
2. Xuddi shu, lekin oyoqlar holati o‘zgartiriladi: birga-yozilgan, birga-o‘ng oyoq oldinga, birga-chap oyoq oldinga, yozilgan - chap oyoq oldinda.
3. O‘ng, chap va ikkala oyoqda galma-gal to‘rttadan sakrashlarni bajarish.

Tezkorlik, kuch, chaqqonlikni rivojlantirish usullari

Tezkorlik, kuch, chaqqonlikni rivojlantirish uchun katta to‘plar bilan bajariladigan mashqlardan foydalanildi:

1. To‘pni yuqoridan otish va pastdan ikki qo‘lda ilib olish.
2. To‘pni polga uloqtirish va keyin sapchigan to‘pni ilib olish.
3. Turli xil saflanishda: aylana bo‘ylab o‘ngga va chapga, bir qator safda, kolonnada bosh ustidan, o‘ng tomondan, chap tomondan, oyoqlar orasidan to‘pni qo‘ldan-qo‘lga uzatish.

Tennis to‘plari bilan mashqlar

1. To‘pni bir qo‘lda yuqoriga otish va ikki qo‘lda ilib olish.
2. To‘pni galma-galdan o‘ng va chap qo‘lda polga otish va sakraganidan so‘ng ilib olish.
3. Xuddi shu, lekin qo‘shimcha harakatlarni bajargandan so‘ng ilib olish.

Kundalik hayotda kamroq ishlaydigan mushak guruhlariga ustuvor ta‘sir ko‘rsatish amalga oshirildi. Bu qorinning ko‘ndalang mushaklari, qo‘llar va sonning orqa yuzasi mushaklaridir[4].

Biz jismoniy tarbiya bo‘yicha o‘quv mashg‘ulotlarini o‘tkazish vaqtida tana mushaklari kuchini rivojlantirishga maqsadli ta‘sir ko‘rsatmay turib to‘g‘ri qomatni saqlab bo‘lmasligini tushunardik. Yotgan holatdan mashqlar bajarishga ko‘proq e‘tibor qaratdik, chunki ular umurtqa pog‘onasiga yengillik yaratadi, yurak-qon tomir tizimiga ortiqcha yuklama bermaydi, mashq bajarish vaqtida qon bosimini kamaytiradi. Tayanishdagi mashqlar, osilib tortilishlar yengillashtirilgan sharoitda o‘tkazildi.

Mashqlarni bajarishda yalpi, oqimli, guruhli va aylanma o‘qitish uslublari qo‘llanildi. O‘quv vazifalarining aniqlashtirilishi va tizimlashtirilishi, nisbatan bir xildagi guruhlarni shakllantirish bo‘yicha maxsus ishlar guruhli hamda aylanma uslublardan kengroq foydalanishga imkon berdi. Bu uslublar 7 yoshdagi maktab o‘quvchilari bilan ishlashda eng samarali bo‘ldi, ular bolalarning sermahsul o‘qishi, individual qobiliyatlari va ijodkorlikni namoyon qilishi uchun shart-sharoitlar yaratib berdi, bolalarda mustaqillikni tarbiyaladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. Toshkent – 2017 y. 145-B
2. Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo‘yiladigan davlat talablari”. T.: 2018
3. “Ilk qadam” maktabgacha ta’lim muassasasining Davlat o‘quv dasturi. T.: 2022.
4. Sh.R.Temirov. “Maktabgacha va kichik maktab yoshidagi bolalarni jismoniy rivojlanishida uzviylikni ta’minlash metodikasi” / Monografiya. Toshkent- 2023.